IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

TALABALARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA OLIY TA’LIM TIZIMI MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL

Mardonova Elmira Shuhrat qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazaryasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21497800

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilim hamda kompetensiyalarini baholash texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki mamlakat oliy ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan baholash mexanizmlari, ularning afzalliklari va mavjud kamchiliklari ilmiy manbalar hamda amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida o‘rganildi. Tahlil natijasida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni yanada rivojlantirish zarurligi asoslandi hamda talabalarning bilim va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashga xizmat qiluvchi integrallashgan to‘rt bosqichli baholash modeli taklif etildi. Mazkur model ta’lim sifati va baholashning obyektivligini oshirish, bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.
Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, baholash texnologiyasi, oliy ta’lim, kredit-modul tizimi, elektron portfolio, qiyosiy tahlil, ta’lim sifati.

Annotation: A comparative analysis is conducted on the specific features of technologies for assessing students' knowledge and competencies in higher education institutions of Uzbekistan and Russia. During the research, the assessment mechanisms used in the higher education systems of both countries, their advantages and existing shortcomings, were studied based on scientific sources and current regulatory documents. As a result of the analysis, the necessity of further developing the competency-based approach in the higher education system of Uzbekistan was substantiated, and an integrated four-stage assessment model was proposed to serve the complex assessment of students' knowledge and professional competencies. The importance of this model lies in its ability to increase the quality of education and the objectivity of assessment, as well as to shape competencies that correspond to the requirements of the labor market for graduates.
Keywords: competency, competency-based approach, assessment technology, higher education, credit-module system, electronic portfolio, comparative analysis, quality of education

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ особенностей технологий оценки знаний и компетенций студентов в высших учебных заведениях Узбекистана и России. В ходе исследования на основе научных источников и действующих нормативных документов были изучены механизмы оценки, применяемые в системах высшего образования обеих стран, их преимущества и существующие недостатки. По результатам анализа обоснована необходимость дальнейшего развития компетентностного подхода в системе высшего образования Узбекистана и предложена интегрированная четырехступенчатая модель оценки, служащая для комплексной оценки знаний и профессиональных компетенций студентов. Данная модель имеет важное значение, так как способствует повышению качества образования и объективности оценки, а также формированию у выпускников компетенций, соответствующих требованиям рынка труда.

Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, технология оценки, высшее образование, кредитно-модульная система, электронное портфолио, сравнительный анализ, качество образования

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda ta’lim mazmuni bilan bir qatorda talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bunday mutaxassislarni tayyorlash jarayonida baholash tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki baholash nafaqat talabaning egallagan bilimlarini aniqlash, balki uning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini, muammolarni hal etish qobiliyatini va amaliy kompetensiyalarini ham ko‘rsatib beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi baholash jarayonlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, dunyoning rivojlangan ta’lim tizimlarida, xususan Rossiya oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyalarni baholashning zamonaviy mexanizmlari keng qo‘llanilmoqda. Mazkur tajribalarni qiyosiy o‘rganish milliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida baholashning markazida bilim emas, balki kompetensiya tushunchasi turibdi. F.K. Razikova, Z.T. Raximov, U.A. Rahimov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida kompetensiyalarni shakllantirish masalalari chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni baholashning yagona va universal mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, kredit-modul tizimida talabaning amaliy kompetensiyalarini baholash mezonlarini aniqlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim tizimlarida talabalarning bilim hamda kompetensiyalarini baholash texnologiyalarini qiyosiy tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda milliy ta’lim tizimi uchun samarali baholash modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim tizimlarida qo‘llanilayotgan baholash texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilinib, ularning ijobiy jihatlari integratsiyasi asosida talabalarning bilim va kompetensiyalarini kompleks baholashga mo‘ljallangan integrallashgan to‘rt bosqichli baholash modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilim hamda kompetensiyalarini baholash texnologiyalarini qiyosiy tahlil qilishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, tizimli tahlil hamda qiyosiy-pedagogik tadqiqot metodlari tashkil etdi. Maqolada qiyosiy-tahliliy, tizimli va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan baholash tizimlari tanlandi. Tahlil jarayonida baholashning maqsadi, vositalari, natijadorligi va kompetensiyalarni aniqlash imkoniyatlari o‘rganildi.

Tahlil davomida baholash tizimlarining asosiy maqsadi, mazmuni, qo‘llaniladigan vositalari, natijadorligi hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ta’siri o‘rganildi.

Olingan natijalar asosida O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun takomillashtirilgan baholash modeli ishlab chiqildi.

O‘zbekiston va Rossiya tajribasining qiyosiy tahlili.

O‘zbekistonda talabalarni baholash asosan joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat natijalari asosida amalga oshiriladi. Kredit-modul tizimi talabaning semestr davomida muntazam ishlashini rag‘batlantiradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda talabaning olgan ballari uning haqiqiy kasbiy kompetensiyalarini to‘liq ifodalay olmaydi. Rossiya oliy ta’lim tizimida esa Federal davlat ta’lim standartlari asosida har bir ta’lim yo‘nalishi uchun shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar aniq belgilab qo‘yilgan. Baholash jarayonida test, suhbat va yozma ishlar bilan bir qatorda loyiha ishlari, amaliy vazifalar, elektron portfolio va keys-topshiriqlardan foydalaniladi. Zamonaviy baholash tizimlarining yana bir muhim komponenti - bu sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan “Aqlli baholash” (Smart Assessment) tizimlaridir. Bunday tizimlar talabalarning nafaqat yakuniy natijalarini, balki butun o‘quv jarayoni davomidagi faoliyatini tahlil qilish, individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish va adaptiv baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, IBM Learning Analytics, Pearson's AI-Powered Assessment Tools kabi dasturiy mahsulotlar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali ta’lim sifatini baholashning ob’yektiv mezonlarini shakllantiradi.

Tahlil natijalari quyidagi farqlarni ko‘rsatdi:

	O’zbekistondagi OTM talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyalari	Rossiyadagi OTM talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyalari
1	O‘zbekistonda baholashning asosiy qismi akademik natijalarga yo‘naltirilgan.	- Rossiyada esa baholash natijalari kasbiy faoliyat bilan bog‘liq kompetensiyalar asosida shakllantiriladi.
2	O‘zbekiston OTMlarida elektron portfolio elementlari endigina joriy etilmoqda.	Rossiya universitetlarida portfolio talabaning individual yutuqlarini baholashning muhim vositasi hisoblanadi.
3	O‘zbekistonda yakuniy nazorat ustuvor ahamiyatga ega bo‘lsa, Rossiyada semestr davomida kompetensiyalarning shakllanish dinamikasini monitoring qilish amaliyoti keng tarqalgan.	Rossiya tajribasida baholashning natijaga emas, jarayonga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.
4	O‘zbekistonda asosan talabalarning kompetensiyalari uning o’zlashtirish natijalariga ahamiyatli emas	Rossiyada esa talabalarning kompetensiyalari uning oxirgi natijalarini baholashda ahamiyat kasb etadi

Tahlillar natijasida quyidagicha takliflar berildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholashning integrallashgan “To‘rt bosqichli model” I taklif etiladi. Qiyosiy tahlil natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashga xizmat qiluvchi integrallashgan to‘rt bosqichli baholash modeli ishlab chiqildi. Mazkur model baholashning uzluksizligi, shaffofligi va obyektivligini ta’minlashga qaratilgan.

1-bosqich. Diagnostik baholash

Ushbu bosqichda talabaning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Diagnostik baholash ta'lim jarayonining boshlanishida amalga oshiriladigan baholash turi bo‘lib, talabalarning mavjud bilimlari, ko‘nikmalari, tayyorgarlik darajasi va kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu bosqich o‘qituvchiga talabalarning dastlabki holati haqida aniq ma'lumot beradi.Ushbu bosqichda o‘qituvchi talabalarning mavzu yoki fan bo’yicha mavjud bilim darajasining to’ldirilishi kerak bo’lgan bo’shliqlarini aniqlashga, ta’lim jarayonini individuallashtirishga, o’qitish strategiyasini o’zgartirishga erishishi mumkin. Diagnostik baholashga yordaam beruvchi vositalar sifatida kirish testlari, so’rovnomalar, hamda bir qancha diagnostik topshiriqlarni kiritish mumkin.

2-bosqich. Formativ baholash

Formativ baholash ta'lim jarayoni davomida muntazam ravishda amalga oshiriladigan baholash turi bo‘lib, talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatish va o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.Ushbu bosqichda talabalarning kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini o’zgarib borishini kuzatish, doimiy ravishda teskari aloqa jarayonida faol bo’lishini kuzatish mumkin hamda vosita sifatida joriy nazorat, guruhli muhokamalar, amaliy topshiriqlarni olib boorish mumkin.

3-bosqich. Amaliy kompetensiyalarni baholash

Ushbu bosqichda talabaning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi va kasbiy kompetensiyalari baholanadi. Bosqichning ushbu qismi bilimlarning amaliy qo’llanilishi, mustaqil faoliyat samaradorligini aniqlash, kasbiy kompetensiyalarni baholash uchun zamin yaratadi. Keys-study, portfolio yaratish, taqdimot va loyiha ishlari ushbu bosqichning vositalar hisoblanadi.

4-bosqich. Integrallashgan yakuniy baholash

Integrallashgan yakuniy baholash talabaning ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini kompleks tarzda umumlashtirishga qaratilgan yakuniy baholash bosqichidir. Integrallashgan baholash kompetensiyaviy yondashuv, natijaga yo‘naltirilgan ta'lim va autentik baholash nazariyalariga asoslanadi. Bu yondashuv talabaning alohida bilimlarini emas, balki ularni kompleks ravishda qo‘llash qobiliyatini baholaydi.

Taklif etilayotgan model quyidagi ustunliklarga ega:

- baholashning uzluksizligi va shaffofligini ta’minlaydi;
- talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarini ham baholaydi;
- o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali teskari aloqani shakllantiradi;
- elektron portfolio va raqamli baholash vositalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi;
- bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur modelni oliy ta’lim muassasalari amaliyotiga joriy etish baholash tizimining samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini takomillashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rossiya tajribasining ijobiy jihatlaridan biri baholashning mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog‘langanligidir. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham ish beruvchilarni baholash jarayonlariga kengroq jalb etish, elektron portfolio tizimlarini rivojlantirish va amaliy topshiriqlar ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT NATIJALARINING JORIY ETILISHI

Mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan integrallashgan to‘rt bosqichli baholash modeli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiya sifatida ishlab chiqildi. Taklif etilgan model

kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan pedagogika, filologiya hamda boshqa ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha fanlarning sillabuslari va ishchi o‘quv dasturlarini takomillashtirishda, baholash mezonlarini ishlab chiqishda, elektron portfolio tizimini joriy etishda hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur modelni oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini xolis baholash, ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim tizimlarida talabalarning bilim va kompetensiyalarini baholash texnologiyalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, har ikki mamlakatda kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq Rossiya oliy ta’lim tizimida baholash jarayonining uzluksizligi, elektron portfolio, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar hamda raqamli baholash vositalaridan foydalanish nisbatan rivojlangan.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan integrallashgan to‘rt bosqichli baholash modeli talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur model baholashning obyektivligi va shaffofligini ta’minlash, o‘qituvchi hamda talaba o‘rtasida samarali teskari aloqani shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini mehnat bozori talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida elektron portfolio, kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlari, loyiha va amaliy topshiriqlar ulushini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish oliy ta’lim muassasalarida baholash tizimini xalqaro tajriba asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi me’yoriy hujjatlari.
3. Abdiraimov Shohruh Samad o’g’li “O’quvchilarni autentik yondashuv asosida baholash ahamiyati” maqola Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences Internation scientific-online conference
4. I.Madatov “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” - monografiya Andijon 2025
5. Razikova F.K. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. PhD avtoreferati. Toshkent, 2025.
6. Raximov Z.T. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorlash. Toshkent, 2024.
7. Rahimov U.A., Tilolova M.M. Kompetensiya va o‘quvchi bilimini baholash. Journal of New Century Innovations, 2023.
8. Эсанов, М. Олий таълимни кредит-модуль асосида ташкил этиш методикаси [Матн]: методик қўлланма / М. Эсанов . – Тошкент: “Sano-Standart”, 2023.